



Jizzax viloyatida demografik holat

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-son qaroriga muvofiq, aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar tayyorlanishi belgilangan. Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi. Shu munosabat bilan 2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-iyul holatiga ro'yxatga olish natijalarisiz Jizzax viloyatining doimiy aholisi soni **1 579,0** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,8** foizga ko'paygan. 2026-yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **17,0** ming nafarni, vafot etganlar **3,1** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **13,9** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **12** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **50** kishini, qayd etilgan nikohlar **3,5** mingtani, nikohdan ajralishlar **1,1** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	1 579,0	ming kishi
Tug'ilganlar soni	17,0	ming kishi
Vafot etganlar soni	3,1	ming kishi
Xorijdan ko'chib kelganlar	12	kishi
Xorijga ko'chib ketganlar	50	kishi
Nikohlar soni	3,5	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	1,1	ming birlik

II. Doimiy aholi soni


Jizzax viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra **1 579,0** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **27,3** ming kishiga yoki **1,8** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **742,3** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **47,0** %), qishloq joylarda esa **836,7** ming kishi (**53,0** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **781,8** ming kishini (**49,5** %), erkaklar esa **797,2** ming kishini (**50,5** %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati	1 551,7	1579,0	101,8
Jizzax shaxri	201,6	204,5	101,4
tumanlar:			
Arnasoy	49,8	50,3	101,1
Baxmal	176,0	179,5	102,0
G'allaorol	192,3	195,7	101,8
SH.Rashidov	251,9	258,3	102,5
Do'stlik	71,3	72,2	101,3
Zomin	186,0	190,0	102,2
Zarbdor	97,3	99,0	101,7
Mirzacho'l	56,7	57,4	101,2
Zafarobod	54,9	55,8	101,6
Paxtakor	83,1	84,3	101,4
Forish	100,4	101,4	101,0
Yangiobod	30,4	30,6	100,7

Jizzax viloyatida 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **74,6** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,3** kishiga ortgan (2025-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **73,3** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **17,0** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **21,7** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,0** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **3,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,0** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **101** nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **17,0** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **8,8** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,8** %), qiz bolalar soni **8,2** ming kishini (**48,2** %) va shahar joylarida **8,5** ming kishini (**50,0** %), qishloq joylarida **8,5** ming kishini (**50,0** %) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **3,1** ming kishini, shundan erkaklar **1,7** kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **54,8** %), ayollar **1,4** kishini (**45,2** %) va shahar joylarida **1,8** ming kishini (**58,1** %), qishloq joylarida **1,3** ming kishini (**41,9** %) tashkil qildi.


Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **3,5** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **53** birlikka kamaygan.


Nikohdan ajralishlar soni **1,1** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **142** birlikka ko'paygan.



Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni **3,5** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,9** birlikni (**54,3%**), qishloq joylarida **1,6** ming birlikni (**45,7%**) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni **1,1** ming birlikni, shundan shahar joylarida **0,8** ming birlikni (**72,7%**), qishloq joylarida **0,3** ming birlikni (**27,3%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **5 515** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **5 503** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **12** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **7 177** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **7 127** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **50** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Jizzax viloyati	5 515	5 503	12	7 177	7 127	50
Jizzax shaxri	1 186	1 186		1 511	1 511	
tumanlar:						
Arnasoy	113	113		352	352	
Baxmal	282	282		625	625	
G'allaorol	254	254		650	644	6
SH.Rashidov	1 523	1 521	2	953	953	0
Do'stlik	312	308	4	388	377	11
Zomin	513	513		504	503	1
Zarbdor	263	263		436	434	2
Mirzacho'l	235	234	1	415	394	21
Zafarobod	184	184		263	262	1
Paxtakor	367	363	4	438	437	1
Forish	182	181	1	483	477	6
Yangiobod	101	101		159	158	1

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
R. Yusupova
72 221-54-00 (2570)

Manzil:
Jizzax viloyati
Jizzax sh. To'qimachilar 7 uy